

**Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi ijroiya qo'mitasi hamda Savdo-
sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi boshqaruv kengashi
QO'SHMA QARORI**

2026-yil 27 - 02 4-634-sonli Urganch shahri

2026-yil 04 - 03 38 -sonli Urganch shahri

2026-yil 27 - 02 3-128-sonli Urganch shahri

**Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi hamda Savdo-sanoat palatasi
Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2023-2025-yillarga tuzilgan
ijtimoiy masalalar bo'yicha mintaqaviy kelishuvning 2025-yilda bajarilish
yakunlari va 2026-2028-yillarga tuziladigan худудий
jamoа kelishuvi to'g'risida**

Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi hamda Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan mehnatkashlarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy himoyalash masalalari bo'yicha 2023-2025-yillar uchun tuzilgan mintaqaviy kelishuvdagi o'zaro majburiyatlar bajarilganligini qayd qilib, 2026-yil "Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш йили" davlat dasturi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid 2026-2028-yillar uchun tuzilgan bosh kelishuvga amal qilib hamda amaldagi qonunlarga muvofiq ish ko'rib, umumiy iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, xodimlar va ish beruvchilarning mehnatga oid huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni saqlab turish ishlarida amaliy hamkorlikni davom qildirish maqsadida Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi ijroiya qo'mitasi hamda Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi boshqaruv kengashi.

Qaror qiladi:

1. Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan mehnatkashlarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy himoyalash masalalari bo'yicha 2023-2025-yillarga tuzilgan xududiy jamoa kelishuvning 2025-yilda bajarilishini nazorat qiluvchi doimiy harakatdagi komissiyaning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi hamda Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan mehnatkashlarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy himoyalash masalalari bo'yicha 2026-2028-yillar uchun ishlab chiqilgan xududiy jamoa kelishuvning 1-ilovaga;

mazkur kelishuvning bajarilishini nazorat qilish va ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi hamda Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi vakillaridan iborat doimiy harakatdagi komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shaharlar va tumanlar hokimliklariga kasaba uyushmalari tashkilotlarining muvofiqlashtiruvchi Kengashlari hamda Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi shaharlar va tumanlar axborot-maslahat markazlari bilan birgalikda mintaqaviy jamoa kelishuvida ko'zda tutilgan tadbirlarni joylarda bajarilishi yuzasidan doimiy komissiyaga muntazam axborot berib borish vazifasi topshirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (D.Bekchanova), Xorazm viloyati teleradiokonali (O'.Matqurbanov), "Xorazm haqiqati" va "Хорезмская правда" gazetalari birlashgan tahririyati (S.Rahimberganova)ga mintaqaviy jamoa kelishuvda ko'zda tutilgan tadbirlar yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi hamda Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi boshqaruv kengashining 2023-yil 26-apreldaги 4-1378, 8-22 "s", 05/06-394-01-sonli qo'shma qarori 2023-2025-yillarga tuzilgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha qabul qilingan mintaqaviy kelishuvning 2025-

yilda bajarilish yakunlari to'g'risidagi axborotni inobatga olgan holda nazoratdan tushirilsin.

6. Mazkur qo'shma qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari S.Salayev, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyati Kengashi raisi G.Kurbanbayeva hamda Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i S.Qurbanovlar zimmasiga yuklansin.

Xorazm viloyati hokimi





J.Raximov

**O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining Xorazm viloyati
Kengashi raisi**





G.Kurbanbayeva

**Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati
hududiy boshqarmasi boshlig'i**





S.Qurbanov

